




ALEKSANDR FAYNBERGNING “SUZAYAPMAN, MUHABBAT, OLIS...” SHE’RI BADIY VA FALSAFIY TAHLILI

Abdishukurova Jasmina Dilshod qizi

jasminaabdishukurova2108gmail.com

Xorijiy til va adabiyot fakulteti, O'zbekiston davlat jahon tillari

universiteti, Toshkent, O'zbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18980652>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 1-mart 2026 yil
Ma'qullandi: 4-mart 2026 yil
Nashr qilindi: 12-mart 2026 yil

KEY WORDS

*Aleksandr Faynberg, badiiy tahlil,
falsafiy tahlil, jonlantirish san'ati,
she'riy obraz, bo'yoqdor uslub*

ABSTRACT

Ushbu maqolada rus va o'zbek xalq shoiri Aleksandr Faynberg qalamiga mansub “Suzayapman, muhabbat, olis...” she'ri chuqur badiiy va falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Bundan tashqari, shoirning tabiat bilan inson ruhiy kechinmalarini satrlarda ifoda etishi va jonlantirish san'atidan mahoratli foydalanishi muhokama qilinadi.

Aleksandr Faynberg – rusiyzabon o'zbek shoiri – uning she'rlari ona zaminni e'tirof etadi, inoniyatni tabiat bilan uyg'un va chambarchas tasvirlaydi. Shubhasiz, shoir uslubi rangdor va o'zgacha ko'rinishga ega. U misralarni shunchaki bitmagan, har birini his qilib qog'ozga tushirgan. Mana shu kabi Faynberg mahoratining mahsullaridan biri “Suzayapman, muhabbat, olis...” she'ridir. Ushbu she'rning asosiy mavzusi – muhabbat va ayriliq kechinmalari. Har bir satr aniq ma'no va tasviriy ifodani ko'rsatadi. Lirik qahramon sevgan insonidan uzoqlashayotgan paytda ichki iztirobini ifodalaydi va bu kechinmalar tabiatning aloqadorligida tavsiflanadi. Quyida ushbu she'rning badiiy va hayotiy jihatdan o'rganilishi keltirilgan.

Birinchi bayt:

“Suzayapman, muhabbat, olis”

Birinchi satrdayoq harakat va masofa obrazlari bilan boshlanadi. “Suzayapman” fe'li lirik qahramonning ruhiy safarini ifodalaydi. Bu yerda suzish o'z ma'nosida emas, metafora sifatida qo'llangan va hayot yo'li yoki muhabbatdan uzoqlashish jarayonini ko'rsatib bergan. Muhabbat so'zining murojaat shaklida kelishi esa uni jonlantirish (personifikatsiya) vositasidir. Bu uslub shoir she'rlarida tez-tez uchrab turadi va she'riyat ixlosmandlariga muhabbatni jonli, tirik mavjudotdek tasavvur qilishga yordam beradi (Mirag'zamova, 2019).

“Gulxanlardan o'rlaydi tutun.”

Ushbu satrda tasviriylik san'ati ustunlik qiladi va shoir kechinmalariga poetik rang beradi. Ayniqsa, “tutun o'rlaydi” jumlasini kuchli metaforik xarakterga ega. Gulxan – issiqlik, hayot, tiriklik, jo'shqinlik ramzi bo'lsa, tutun esa uning xotirasi yoki izlari sifatida tasvirlangan. Bu shuni anglatadiki, lirik qahramon muhabbat olovidan uzoqlashgan sari, undan faqat tutun – ya'ni xotira qoladi.

“Sendan bo'sa oladi yulduz,”

Bu satr kosmik obrazni yaratgan. Yulduzning bo'sa olishi, lirik qahramon uchun romantik va idealistik hayoliy tasvirni yaratishga yordam bergan. Shoir bu orqali nafaqat nazm san'atining yuqori darajasini, balki sevgi kabi tuyg'uning yuksak va samoviy darajasini ko'rsatib bergan. Darhaqiqat, yulduz obrazining qo'llanilishi Faynberg she'riyatida inson orzularining cheksizligi va yuksakligini ifodalash uchun xizmat qiladi (Bazarov & Yuldosheva, 2025).

“Bu qirg'oqdan ketaman bugun.”

She'rning birinchi bandi qaror bilan tugaydi. “Qirg'oq” bu yerda hayot bosqichi yoki muhabbat manzili ramzi hisoblanadi. Lirik qahramon beajiz “ketaman bugun” deb qaror qabul qilmaydi, negaki u bu muhabbat qissasi poyiga yetayotganini biladi va ajralish muqarrarligini anglab yetadi.

“Qirg'oqqa tashlayman langacho'p,”

Ma'lumki, langarcho'p kemandi harakatini to'xtatishda foydalaniladigan vosita. Bu holatni tasvirlash orqali shoir to'xtash yoki qaror qabul qilish jarayonini tasvirlaydi. Bu satr lirik qahramon so'nggi qarorni berish uchun tafakkur etayotganini, uning ichki kurashi yakunlanib, ketishga tayyor ekanini ifodalaydi.

“Izmiga soladi moviy suv”

“Moviy suv” tasviri tinchlik va chuqurlik, kenglik ramzidir. “Izmiga soladi” iborasi esa tabiatning inson ustidan hukmronligi kabi mushohadaga sabab bo'ladi. Bu yerda yana takror tabiat va inson o'rtasidagi bog'liqlik tasvirlanadi, ya'ni lirik qahramon tabiatni uning qarorlariga, hissiyotlariga ta'sir etuvchi omil sifatida aks ettiradi.

“To'lqinlari yugurik, to'p-to'p”

Bu band she'rda dinamik obrazni yaratadi. Lirik qahramon tuyg'ular va o'ylar og'ushida bo'lib, beqaror holatda ekanligini bildiradi. Takroriy tovushlarning qo'llanilishi she'rga ritmik ohang bag'ishlaydi.

“Daryo tubi – adabiy g'uluv.”

Daryo tubining “g'uluv” deb ifodalanishi she'riy obraz bo'lib, u inson qalbinig chuqurligi bilan qiyos etiladi. Faynberg she'rlarida tabiat ko'pincha inson ruhiyati bilan parallel tasvirlanadi (Karimov, 2021).

“Daryo bo'ylab oqim betizgin,”

Bu satrda cheksizlik va erkinlik g'oyasi mavjud. “Betizgin oqim” hayotning shiddatli ko'rinishi yoki taqdir timsoli sifatida keltiriladi. Demak, shoir hayotning turfa xil mashaqqatlari borligi, uning bir oqimda ketmasligi, taqdir sinovlari haqida ogohlantiryapti.

“Tikilasan samoda – qushlar.”

Qushlar bevosita osmon bilan bog'liq obraz bo'lib, ular ramziy ma'noda erkinlik va umid. Bu yerda go'yoki lirik qahramon osmonni kuzatadi va erkin qanot qoqayotgan qushlarga havas qiladi, o'zida turfa hissiyotlarni o'tkazadi.

“To'lqinlar ham ayriliq hissin”

Shoir bu misrada ham jonlantirish san'atida mohirona foydalanadi va to'lqinlarni jonli obraz sifatida tasvirlaydi. Uning yozishicha, to'lqinlar ham, hatto, ayriliq azobini his qilayotgandi. Shu ta'rif orqali, shoir vaziyatni qanchalik og'riqli ekanligini yanada yaqqol ko'rsatib beradi.

“Sezgan kabi bir-birin ushlar.”

To'lqinlarning bir-birini "ushlashi" jonlantirish san'atining yana bir yorqin namunasi. Bu tasvir ayriliqning barcha uchun xos tuyg'u ekanligiga urg'u qaratadi. Nafaqat insonlar ayriliq iztirobini chekadi, balki bu tabiatda ham bor holatligini aytmoqchi bo'ladi shoir.

"Sirg'aladi bo'zlaring qaynoq,"

Ushbu band iztirobning eng oliy darajasini anglatadi, negaki "sirg'alish" tasodif emas; u lirik qahramon ko'z yoshlari daryo bo'lgan va sirpanchiq holga kelganligini bildiradi.

"Ko'rinmaydi gulxan tutuni."

She'r boshida tilga olingan "gulxan" obrazi yana qaytadi, ammo bu safar na uning o'zidan va na tutunidan darak bor. Bu esa umidning keskin darajada so'nib borayotganini anglatadi.

"Bulutlarning ortida – qirg'oq:"

Bulutlarning ortidan elas-elas ko'rinayotgan qirg'oq – bu yangi hayot yoki noma'lum kelajak ramzi.

"-Kechir! – ko'kka sig'maydi uning."

She'r so'nggi dramatik ohang bilan yakunlanadi. "Kechir" so'zi qahramonning ruhiy holatini, pushaymonligi va ichki iztirobini aks ettiradi. Bu satr orqali shoir muhabbat hech qachon tamomila yo'q bo'lib ketmasligini, uni inson qalbining to'rida boqiy yashashini ko'rsatadi.

Xulosa

Yuqoridagi she'r Aleksandr Faynberg ijodining durdonalaridan biri hisoblanadi. Shoir she'riyatga qalbning so'zlarini aks ettirish uchun murojaat qiladi va inson his-tuyg'ularini tasviriy, bo'yoqdor uslubda bayon etadi. "Suzayapman, muhabbat, olis" she'rida, asosan, murojaat ohangini va hayqiriqli izhorlarni ko'rish mumkin. Shoir shaxs kechinmalarini aniq ochib berish uchun daryo, to'lqin, bulut, yulduz kabi obrazlardan foydalanadi. Bundan tashqari, ushbu she'rda jonlantirish san'atining yorqin ko'rinishi aks etgan. Faynbergning tabiat obrazini jonli ravishda yaratishi har bir satrga estetik va romantik sayqal bergan. She'r muhabbatdan ayrolikning og'ir bo'lsa-da muqarrar yakunga ko'ngan, ammo hamisha sevgini qalb to'rida asrashini e'tirof etgan lirik qahramonning so'zlari bilan tugaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bazarov, I. R., & Yuldosheva, E. A. (2025). Hopefulness in the poetry of Alexander Faynberg. International Journal of Integrated Sciences.
2. Mirag'zamov, M. (2019). Aleksandr Faynberg she'riyatida badiiy obrazlar tizimi. Toshkent.
3. Karimov, N. (2021). O'zbek she'riyati poetikasi. Toshkent.